

Masqaraboz emas - qo'g'irchoqboz!

Sabrinabonu Temirova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek qo'g'irchoq teatrlarining o'tmishdagi va hozirgi zamonamizdagi mavqeyi haqida keltirilgan. Qo'g'irchoq teatri tarixda va hozirgi yashayotgan davrimizda xalq orasida qanday hurmat qozongan va qozonishi kerak, aynan shu haqida batafsil aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: masqaraboz, qo'g'irchoq teatri, chodir, jamol, qo'g'irchoqboz, tarix.

Atrofimiz masqarabozlarga to'la bir zamonda yashayapmiz aslida, shunday emasmi? Avvallari masqaraboz deyishsa ko'z oldimizga o'sha sirkda insonlarni ko'nglini oluvchi "burni qizil", kamalaksimon kiyim kiygan bir inson kelardi, lekin hozir unday emas... Dunyo atalmish sirk masqarabozlarga to'lib toshgan zamonamizda ularning insonlar nazaridagi turlari ham ko'payib ketdi. Aynan insonlar nazaridagi bir turdagi "masqarabozlar" borki ular o'z kasbining fidoiylari hisoblanishadi. Ular o'z kasbini sevishadi, ular sirkda ishlashmaydi, biroq ular ba'zi bir insonlar nazarida o'sha "Masqaraboz"ga tenglashtiriladi. Yo'q, bu sirk emas, bu - Qo'g'irchoq teatri! Ular masqaraboz emas, ular - Qo'g'irchoqboz! Ko'zlari nur sochib turgan aslida esa qo'shtirnoq ichidagi ko'p sonli "ko'r" insonlar uchun aynan shu qo'g'irchoq teatri va qo'g'irchoqbozlarni hech bo'lmaganda kasbini hurmat qilish uchun sabablar juda ko'p. Masalan, eng avvalo, murg'ak qalblarni san'atga oshufta qilish, voqelikni estetik qabul qilish urug'larini sepish, ularning ma'naviyati, istiqboli haqida jamiyat g'amxo'rlikiga katta hissa qo'shishadi aynan o'sha qo'g'irchoqbozlar. Qo'g'irchoqbozlarni masqaraboz deb atab keladigan insonlarni farzandlari ertaga teatr bilan bir-birlariga mushtarak holda bo'ladilar. "Qora quti" deya atalmish, hozirgi kunda butun dunyo aholisini o'ziga rom etib qo'yib, insonlarni deyarli boshqarayotgan qo'limizdagi telefondan ko'ra aynan shu "qo'g'irchoq teatri"ni insoniyatga tarixda foydasi anchagina katta bo'lgan. Qo'g'irchoqbozlar elu-yurtga ozor bergan, g'am-kulfat keltirgan zamon zo'rvonlarini tanqid qilish hamda turmushdagi ayrim qoloqliklar, egriliklar ustidan kulish bilan xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy va estetik vazifani bajarib kelganlar. Ammo ularning muddaosi qancha ulug' va sof, san'ati qancha mazmundor va yuksak bo'lmasin, jamiyatda qo'g'irchoqbozlar eng past tabaqa hisoblangan, tahqirlangan, xo'rlangan. Tarixdagi o'sha eng past tabaqa deb hisoblangan xatolik mana ayni damdagi zamonamizga kelib ham davom etmoqda. O'sha nazar, o'sha nazar. O'tmishda hattoki ulamolar ham "qo'g'irchoq teatri" va qo'g'irchoqbozlar haqida turli xil gaplarni tarqatib kelishgan. O'tmishda qo'g'irchoq teatriga olimlarimizning yetarli e'tibor bermaganliklarining boisi ham shunda. O'zbekistonning qaysi bir qadimiy shahrini olib qaramang, unda ota-bobolari qo'g'irchoqbozlik bilan o'tgan o'nlab ustozoda qo'g'irchoqbozni uchratishingiz mumkin. Qo'g'irchoqbozlik san'ati ham xuddi dorbozlik singari avloddan-avlodga meros sifatida o'tib kelgan. Faqatgina dorbozlik va qo'g'irchoqbozlikni farqi shunda bo'lganki, dorbozlikda havaskorlarga o'rin bo'lmagan, lekin havaskor qo'g'irchoqbozlar juda ham ko'plab topilgan. O'sha davrlarda qo'g'irchoq o'ynatish san'ati otadan o'g'ilga, hech bo'lmaganda jiyanga o'tishi bizda odat tusida bo'lgan. Qo'g'irchoqbozlik san'ati shunchaki qo'g'irchoq o'ynatishdan iborat bo'lmagan. Shogird kim bo'lishidan qat'iy nazar usta qo'g'irchoqboz uni astoydil tarbiya qilgan. Nutq madaniyati, sahna madaniyati juda ham katta rol o'ynashi o'sha davrda ham hozirgi zamonda ham eng muhim omillar bo'lib kelgan. Bu omillar nafaqat qo'g'irchoqbozlik kasbi uchungina kifoyalanmasdan tashqi hayotdagi inson madaniyatini yuksaltirish uchun ham xizmat qilgan. Tabiiyki nutqi ravon va madaniyatli insonligi bir ko'rinishda bilinib turuvchi inson sifatida gavdalangan. Ya'ni boshqa odamlardan bir qarashda ajralib tura olgan, shu qatori o'ziga yarasha hurmatga ham sazovor bo'la olgan. Hozirgi zamonda esa hukumatimiz tomonidan qo'g'irchoq teatrlari va qo'g'irchoqbozlarga nisbatan qaratilayotgan e'tibor maqtovg'a arzigulik darajada katta. Biroq o'sha jamiyatdagi qoloq fikrli insonlar uchun o'sha qo'g'irchoqbozlar hali hamon "masqaraboz" sifatida qolib kelmoqda. O'sha past nazar bilan qaralmoqda. Ular uchun masqarabozlikdek tuyuladigan bu kasbni zamirida juda ham katta mehnat va sabr-toqat turganini tashqi hayotdagi insonlar bilishmaydi. Tomoshabin ko'rganiga baho beradi, yaxshi yoki yomon deyishni bilishadi. Lekin uni tub zamiridagi mehnat ularni qiziqitirmaydi, hayoliga ham keltirishmaydi.

Qo'g'irchoq faqat insonning qo'lida jonlanadi. Qo'g'irchoqbozlar o'z kasbini sevadi, mehr beradi, yillar davomida aynan shu kasb uchun qimmatli vaqtini sarflaydi. Bu kasbning achchiq-chuchugini tatib ko'radi. Biron bir kichik asar ustida ishlash uchun oylab, kerak bo'lsa yillab vaqtini sarflaydi. Uni esa hozirgi zamonaviy jamiyatimizdagi ayrim kimsalar hali hamon masqarabozlikka yo'yishadi. Guruchdagi kurmaklar aynan shu insonlardir. Lekin kurmaklar sonidan ham ko'ra guruchlar soni ko'proq, bu aniq. Biroq, aynan o'sha guruch ichidagi kurmaklarni tozalash kerak. Kurmaklarni bu qo'g'irchoq teatri va qo'g'irchoqbozlarga nisbatan fikrini o'zgartirishga undash kerak, ularni ko'rsatish va isbotlash kerak. Bu qo'g'irchoqbozlarning qo'lidan keladi, men bunga ishonaman. Vaqti-soati kelib jahon teatrining maroqli tarixi, oddiy qo'g'irchoq o'yinining ulkan va murakkab san'at darajasiga yetishi jarayonlari haqida kitoblar yozilishi shubhasiz. Jahonning mashhur qo'g'irchoq teatri qahramonlari davrasida bizning milliy qo'g'irchoq teatr qahramonimiz - Kachal Polvon ham munosib joy oladi. "Qo'g'irchoq teatri" va qo'g'irchoqbozlar qisqa qilib aytganda shunday insonlarki farzandingiz va sizni o'rtangizdagi quvonchli suhbatning qaysidir ma'nodagi bir sababchilari desak mubolag'a bo'lmaydi. Nega deysizmi, bu savolga javob olish uchun farzandingizni bir marta bo'lsa ham shu siz "masqarabozlar" deb tilga olib keladiganingiz qo'g'irchoqbozlarning biron bir spektaklida olib kirishingiz kerak. Ishoning bu kasbga bo'lgan, bu insonlarga bo'lgan fikringiz farzandingiz yuzidagi quvonch tufayli o'zgaradi, hurmatingiz oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Qo'g'irchoq teatri tarixi" (M.Qodirov, S.Qodirova)
2. "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari" (D.D.Abdullayev, L D.Usmonova)
3. Boltaboeva, U., & Madaminov, S. (2021). FACTORS OF DEVELOPMENT OF UZBEK TRADITIONAL THEATER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 32-40.
4. Boltaboeva, U. (2021). The Art of Directing: Composition and Scales. International Journal of Culture and Modernity, 11, 16-24.
5. Болтабоева, У. (2021). Бўлажак актёрларни тарбиялашда педагогик ёндашувлар. Oriental Art and Culture, 2(3), 88-98.
6. Boltaboeva, U., & Xalilov, Y. (2021). Teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Oriental Art and Culture, 2(3), 40-48.
7. Boltaboyeva, U., & Yu, K. (2021). The director's work on monologue and mise-en-scenes. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 71-77.
8. Ҳатамова, Ё., & Болтабоева, У. (2019). Нутқ техникасини такомиллаштиришда халқ оғзаки ижодидан фойдаланиш усуллари. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 50-52.
9. Болтабоева, У., & Деҳқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. Oriental art and culture, 2(3), 134-141.
10. Болтабоева, У. (2020). ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРИ ГУРУҲЛАРИДА САҲНАВИЙ НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ. Oriental Art and Culture, 1(5), 85-92.
11. Болтабоева, У. (2021). МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ТАРИХИЙ АСАРЛАРИНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).
12. Эргашев, К., & Болтабоева, У. (2021). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЁШЛАР НИГОҲИДА. Oriental Art and Culture, (6).
13. Усмонов, Ш. Ю. (2021). РЕЖИССЁРИНИНГ РАССОМ БИЛАН ИШЛАШИ. Oriental Art and Culture, (6).
14. Usmonov, S., & Talaboyev, A. (2021). Work of the director with an artist. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2407-2410.
15. Abdunazarov, Z. (2021). Features of Theatrical Art. International Journal of Culture and Modernity, 11, 1-7.
16. Abdunazarov, Z. (2021). Namza hakimzoda niyoziy dramaturgiyasi. Oriental Art and Culture, 2(3), 170-178.
17. Абдуназаров, З. (2021). ИЖОДИЙ СИНТЕЗ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА РЕЖИССЁРИНИНГ РОЛИ. Oriental Art and Culture, (6).

18. Boltaboeva, U., Abdunazarov, Z., & Usmonov, S. (2021). The balance of language and speech in the Uzbek theater. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 788-792.
19. Tursunova, G. (2021). Russian Music in the First Half of the XIX Century, A Look at the Cultur e. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 76-82.
20. Boltaboeva, U., Andunazarov, Z., & Tursunova, G. (2020). Importance of tongue twisters and proverbs in overcoming speech defects. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2902-2905.
21. Tursunova, G., & Karimov, B. (2020). Factors that should be considered in musical theater actors education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 57-61.
22. Tursunova, G. (2021). BALET RAQS SAN'ATINING O'RNI VA TARIXIY TARAQQIYOTI. *Oriental Art and Culture*, (6).
23. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical approaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of Higher Education. *European Journal of Arts*, (1), 125-128.
24. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
25. Haydarov, A. (2021). A LOOK AT RUSSIAN MUSICAL CULTURE IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 24-31.
26. Haydarov, A. (2019). AKTYORLIK SAN'ATIDA VOKALNING O 'RNI. *Интернаука*, (19-4), 55-56.
27. Haydarov, A. (2020). QOSHIQLAR ORQALI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYGUSINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental Art and Culture*, (IV).
28. Haydarov, A. (2021). The role of Uzbek folklore in the aesthetic development of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1973-1977.
29. Akbarov, T. (2020). Vocal performance role in performing art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 77-80.
30. Dadaboev, Y., & Dehqonov, R. *Hordo Structures in Central Asian Architecture*.
31. Болтабоева, У., & Дехқонов, Р. (2021). Ҳаётийлик ва ҳаққонийлик драматик асар, режиссура, актёрлик маҳорати асоси. *Oriental art and culture*, 2(3), 134-141.
32. Дехқонов, Р. (2020). СОҒЛОМ АВЛОДЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ ВА АНЪАНАЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
33. Madaliyev, A. (2021). Dramaturgy of Traditional Uzbek Puppet Theater. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 37-43.
34. Мадалиев, А. (2021). НОДАВЛАТ ҚЎҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИДА АКТЁРЛИК САНЪАТИ МАСАЛАЛАРИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 37-48.
35. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри актёрининг пластик имкониятлари. *Oriental Art and Culture*, (7), 49-57.
36. Мадалиев, А. (2021). Қўғирчоқ театри тарихига назар. *Oriental art and culture*, 2(3), 125-133.
37. Umarova, X. (2021). AKTYOR IJODIDA SO'ZLASHUV MUNOSABATLARINING O'RNI. *Oriental Art and Culture*, (6).
38. Умарова, Х., & Курбонов, М. (2021). КС СТАНИСЛАВСКИЙ ТАЪЛИМОТИДА АКТЁРНИНГ САҲНАВИЙ ТАРБИЯСИ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 76-87.
39. Йулдашев, К. (2021). РЕЖИССУРА ВА АКТЁРЛИК МАҲОРАТИ ФАНЛАРИНИ ИНАВАЦИОН ЎҚИТИШ. *Oriental Art and Culture*, 2(3), 114-124.
40. Juraeva, M., & Gofurova, B. (2021). FURKAT AND THEATER. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 118-124.
41. Гофурова, Б. (2020). АКТЁРНИНГ НУТҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
42. Пўлатов, Р. (2020). «МИРЗО УЛУҒБЕК» ТРАГЕДИЯСИНИНГ ЯРАТИЛИШИ ТАРИХИ. *Oriental Art and Culture*, (V).
43. O'Taganov, R. J. (2020). TA'LIM USLUBINING ASOSIY AFZALLIKLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).